# Ona tili

3

## IV qism



novda

edutainment

**UO‘K:** 811.512.133(075.3)
**KBK** 81.2O‘zb-922
T-60

**Baynazarova D. D.**
**Ona tili.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. IV qism. / Baynazarova D. D., Toirova M.E. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 96 b.

**Taqrizchilar:**

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o‘rta ta’lim maktabning oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o‘rta ta’lim maktabning birinchi toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

**ISBN** 978-9943-9715-7-8

© D.D.Baynazarova, M.E.Toirova
© “Novda Edutainment”, 2023

# Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Savollarga javob bering



Topshiriqni bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring



Guruh bo‘lib ishlang

## Aziz o‘quvchilar!

Ona tiliga mehr Vatanga muhabbat kabi pok tuyg‘udir.

Bu kitob ko‘zlari chaqnoq, ilmga tashna Sizdek bolajonlarning nutq va lug‘at boyligini o‘stirishga, imloviy savodxonlik, to‘g‘ri yozish, o‘qish hamda husnixat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikda grammatika qoidalarini oson o‘zlashtirishingiz, grammatik tahlilni sodda, aniq yo‘llar bilan amalga oshirishingiz va ijodiy fikrlashni o‘rganishingiz uchun turli jadval, rebus, boshqotirma, diktant va test topshiriqlari berilgan.

**Omad yor bo‘lsin!**




Ona
tili

# 3-chorakda o‘tilganlarni takrorlash

**1-mashq. Quyidagi jadvalda berilgan tushunchalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang. Noto‘g‘ri javoblarni to‘g‘risi bilan almashtirib, daftaringizga yozing.**

| T/r | Tushunchalar | To‘g‘ri | Noto‘g‘ri |
|---|---|---|---|
| 1. | Shaxs va narsalar nomi (kishilarning ismi, familiyasi, kasbi, hayvonlarning nomi, narsa-buyumlarning nomi, tabiat hodisalari, o‘rin-joy va hududlarning nomlari)ni bildirib, Kim? Qancha? Qanaqa? Qanday? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar ot deyiladi. | | |
| 2. | Shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘z ot deyiladi. Otlar Qanday? yoki Qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Otlar gapda sifatga bog‘lanib keladi: ***zangori gilam, yashil bog‘lar, yorug‘ yulduzlar.*** | | |
| 3. | Shaxslarni bildiruvchi otlar: ***soatsoz, to‘quvchi, duradgor, kutubxonachi.*** | | |
| 4. | -li, -dor qo‘shimchalari yordamida hosil qilingan sifatlar belgiga egalik ma’nosini, -siz qo‘shimchasi yordamida yasalgan sifatlar belgiga ega emaslik ma’nosini bildiradi. | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | Kishilarning kasbini bildiruvchi otlar: ***o‘qituvchi, shifokor, rassom, arxitektor.*** | | |

**2-mashq.** **Birinchi ustundagi so‘zlarga *-la*, ikkinchi ustundagi so‘zlarga *-chi*, uchinchi ustundagi so‘zlarga *-li* qo‘shimchalarini qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling. Ularning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini, qaysi so‘z turkumiga oidligini ayting.**

| | | |
|---|---|---|
| pardoz – pardoz**la** | sport – sport**chi** | suv – suv**li** |
| ixcham – ... | sut – ... | nur – ... |
| mahkam – ... | hashar – ... | ishonch – ... |
| erka – ... | bo‘yoq – ... | intizom – ... |
| yaxshi – ... | holva – ... | odob – ... |
| mayda – ... | kashta – ... | xavf – ... |
| tekis – ... | tennis – ... | kuch – ... |

**So‘zlarni mos ustunga joylashtiring.**

***Namuna:***

| sifat ⟶ fe’l | ot ⟶ ot | ot ⟶ sifat |
|---|---|---|
| pardoz – pardoz**la**<br>ixcham – ixcham**la** | sport – sport**chi**<br>sut – sut**chi** | suv – suv**li**<br>nur – nur**li** |

**Hosil qilingan so‘zlardagi asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha beigilang.**

# 1-mavzu 3-chorakda o‘tilganlarni takrorlash

**3-mashq.** **So‘z turkumlari haqidagi topishmoqlarni o‘qing. Daftaringizga 1 dan 4 gacha bo‘lgan raqamlarni yozing. O‘qituvchingiz o‘qigan topishmoq javobini uning tartib raqami yoniga yozib qo‘ying.**

**1**

So‘rog‘idir Kim? Nima?
Kitob, daftar, gul, olma.
Shaxs va narsaning nomi,
Bu qaysi so‘z turkumi?

**2**

Bildiradi belgini,
Maza-ta’m, rang-tus, hidni.
Mustahkamlar sezgini,
Bu qaysi so‘z turkumi?

**3**

Son-sanoqni bildirar,
Hisob-kitob qildirar.
So‘rog‘i Nechta? Qancha?
Sanayver xohlagancha.

**4**

Harakatni bildirar,
Tinmay mehnat qildirar.
So‘rog‘i Nima qildi?
Buni ayting, kim bildi?

**Topishmoqlarning javobini topishda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi?**

**4-mashq.** **“Mening uyim qayerda?” ta’limiy o‘yini. Jadvalni daftaringizga chizing. Berilgan so‘zlarni mos katakka yozing.**

| Kim? Nima? | Qanday? Qanaqa? | Nima qildi? Nima qiladi? |
|---|---|---|
| | | |

***Foydalanish uchun so‘zlar:*** *taxta, yozmadi, qadrli, baxtli, yig‘ladi, qadrlaydi, fikrsiz, bemaza, bebaho, suvsiz, mazali, o‘tirdi, kursdosh, bormadi, rivojlandi.*

# Son haqida ma’lumot

**5-mashq.** **Maqollarni o‘qing. Ma’nosini izohlab, sonlarga so‘roq bering. Daftaringizga ko‘chirib, tagiga tegishlicha chizing.**

**Og‘iz bir, quloq ikki.**

**Yetti o‘lchab, bir kes.**

**Yigit kishiga qirq hunar ham oz.**

**Bir tulki to‘rtta bo‘rini yetaklar.**

**Birdan ikki yaxshi, Ikkidan uch yaxshi.**

Shaxs va narsaning sanog‘ini bildirgan so‘zlar **son** deyiladi. Sonlar ***Nechta? Qancha?*** so‘roqlariga javob bo‘ladi.
***Nechta (daftar)?*** – *O‘nta daftar.*
***Qancha (suv)?*** – *Bir piyola suv.*



**6-mashq.** **Chizmaga mos gaplar tuzing va ularni daftaringizga yozing.**



# MUNDARIJA


1-mavzu. 3-chorakda o‘tilganlarni takrorlash ... 6
2-mavzu. Son haqida ma’lumot ... 9
3-mavzu. Son ... 11
4-mavzu. Son ... 13
5-mavzu. Sonlarning turlari ... 15
6-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi ... 18
7-mavzu. Sonlarning imlosi ... 21
8-mavzu. Sonlarning imlosi ... 24
9-mavzu. Mustahkamlash ... 26
10-mavzu. Fe’l haqida ma’lumot ... 28
11-mavzu. Fe’lning so‘roqlari ... 31
12-mavzu. Yaqin ma’noli fe’llar ... 34
13-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi ... 36
14-mavzu. Gap mazmuniga mos fe’llar topish ... 38
15-mavzu. Gap mazmuniga mos fe’llar topish ... 39
16-mavzu. Fe’l ma’nolari ustida ishlash ... 41
17-mavzu. Fe’l ma’nolari ustida ishlash ... 43
18-mavzu. Fe’l ma’nolari ustida ishlash ... 46
19-mavzu. Fe’llarning tallafuzi va imlosi ... 48
20-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi ... 51
21-mavzu. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar ... 54
22-mavzu. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar ... 58
23-mavzu. Fe’l yasovchi qo‘shimchalar ... 61
24-mavzu. Fe’l yasovchi qo‘shimchalar ... 64
25-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi ... 66
26-mavzu. Rasm asosida kichik matn yozish va tahlil qilish ... 70
27-mavzu. Matn ustida ishlash ... 73
28-mavzu. Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash ... 76
29-mavzu. Nazorat ishlari uchun topshiriqlar ... 80
30-mavzu. Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash ... 84

# veb-saytimiz: Zokirjon.com

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

## *Zokirjon Admin bilan*

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi***

**3-sinf ona tili IV qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@Maktablar_uchun_hujjatlar**

## DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**
**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To'liq holda olganingizdan so'ng:**
**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet veb-saytlarga joylamang.**
**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**